

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Durdona Kabulova

O'ZBEK TILIDAN DIDAKTIK MATERIALLAR

Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan bakalavr ta'lim yo'nalishlari uchun
uslubiy qo'llanma

NUKUS-2016

Tuzuvchi: D.Kabulova

Qo'llanma bakalavr ta'lim yo'nalishlarining qoraqalpoq guruhlarida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan. Darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda talabalarning nutqiy malakalarini o'stirishga mo'ljallangan tarqatma materiallar keltirilgan.

Mas'ul muharrir:

Shahlo Yuldasheva - Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, pedagogika fanlari fomzodi.

Taqrizchilar:

Farhod Bobojonov - Qoraqalpoq davlat universiteti, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Muhabbat Xudayorova - Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, filologiya fanlari nomzodi

**Qo'llanma Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat
pedagogika instituti O'quv-metodik Kengashi qarori
(2015-yil 22-dekabrdagi №5-sonli bayonnoma)
bilan nashrga tavsiya etilgan.**

O'zbekiston yagona Vatan (Modal so'zlarning hissiy-tasviriy xususiyatlari)

1-tarqatma



1-topshiriq. Rasm asosida kichik matn tuzing. Tayanch so'zlar: O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Tojikiston.

2-topshiriq. Modal so'zlarni topib ma'no turini ayting. Dastlab uchrashganda Mavludaning so'zlarida, darhaqiqat, ayriliq alami, qora kulfat soyasi bor edi. (T.Malik)

2-tarqatma



1-topshiriq. Davlat, ramz, gerb, qabul qilinmoq, mustaqillik, erishmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing. Matnda modal so'zlardan foydalaning.

2-topshiriq. Modal so'zlarni topib ma'no turini ayting.
– To'g'ri, bu yerda ham tashvish oz emas. (O.Yoqubov)

3-tarqatma



1-topshiriq. Rasm asosida O'zbekiston, ramz, bayroq, yarim oy, yulduzcha, rang, oq, yashil, ko'k tayanch so'z va birikmalar ishtirokida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Modal so'zlarni topib ma'no turini ayting
Nahotki, odam tirik qolishi uchun ham pora berishi kerak bo'lsa! (O'.Hoshimov)

4-tarqatma



1-topshiriq. Rasm asosida O'zbekiston, milliy so'm, chiqmoq, mustaqillik, erishmoq tayanch so'z va birikmalar ishtirokida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Modal so'zlarni topib ma'no turini ayting.
Chamamda, oyim ham shuni o'ylardi shekilli, sekin gap qo'shdi. (O'.Hoshimov)

5-tarqatma



1-topshiriq. Rasm asosida O'zbekiston, mustaqillik, erishmoq, Respublika, Konstitutsiya, modda, qabul qilmoq tayanch so'z va birikmalar ishtirokida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Modal so'zlarni topib ma'no turini ayting.
Nihoyat, jahl bilan o'rnidan turdi. (O'.Hoshimov)

6-tarqatma



1-topshiriq. Rasm asosida O'zbekiston, Mustaqillik, bayram, katta, tantana, har, yili, nishonlamoq tayanch so'z va birikmalar ishtirokida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Modal so'zlarni topib ma'no turini ayting.
–Umuman, bilaman. Yo'q, to'g'risi, bilmayman.
(T.Malik)

7-tarqatma



1-topshiriq. Rasm asosida Milliy, bayroq, ta'zim qilmoq, yurt tinchlik tayanch so'z va birikmalar ishtirokida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Modal so'zlarni topib ma'no turini ayting.
Lekin o'sha sullohning bir gapida jon bor: Jiddiyroq farazni o'rtaga tashlasang, avvalo, "unvoni bormi buning" deb so'rashadi. (T.Malik)

8-tarqatma



1-topshiriq. Rasm asosida milliy armiya, yurt tinchlik, xavfsizlik, himoya qilmoq, tuzilmoq tayanch so'z va birikmalar ishtirokida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Modal so'zlarni topib ma'no turini ayting.
Afsuski, bu sir yer qa'riga singib ketgan. (T.Malik)

9-tarqatma



1-topshiriq. Rasm asosida O'zbekiston, faxr, qadimiy, navqiron, Samarqand tayanch so'zlari ishtirokida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Modal so'zlarni topib ma'no turini ayting.

Ikkinchidan, – Komil yana bir barmog'ini bukdi, – moddiy boylik nimaning evaziga to'planadi? Albatta, ma'naviy qashshoqlanishning! (T.Malik)

10-tarqatma



1-topshiriq. Rasm asosida qadimiy yodgorlik, chet ellik, sayyoh, ko'p, tashrif buyurmoq tayanch so'z va birikmalar ishtirokida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Modal so'zlarni topib ma'no turini ayting.

Bu tashabbus eridan chiqishini kutdi. Nihoyat, Komil aytdi... (T.Malik)

11-tarqatma



1-topshiriq. Rasm asosida Vatan, tarixiy shaharlar, ko'p bo'lmoq, turli, sayyohlar, tashrif buyurmoq tayanch so'z va birikmalar ishtirokida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Modal so'zlarni topib ma'no turini ayting.

Ehtimol, siz Omonturdiyevni yoqtirmagansiz? (T.Malik)

12-tarqatma



1-topshiriq. Rasm asosida betakror, yagona, O'zbekiston, ona Vatan tayanch so'z va birikmalar ishtirokida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Modal so'zlarni topib ma'no turini ayting.

Xullas, ko'nglimga g'ulg'ula tushdi. (T.Malik.)

Institutim bilan faxrlanaman (Leksik qatlamlar)

1-tarqatma



1-topshiriq. *Rasm asosida institut, 1934-yil, pedagog, kadr, yetishmoq, tashkil topmoq, ko'plagan tayanch so'z va birikmalar ishtirokida gaplar yozing.*

2-topshiriq. *Berilgan gapdagi fors-tojikcha so'zlarni toping va izohlang.*

Mayli kelsin! Gapirsin! Menga qolsa qarshi gapirsin, jiyanlari oldida o'zi sharmandayi sharmisor bo'ladi!
(O.Yoqubov)

2-tarqatma



1-topshiriq. *Institut, bo'lib o'tmoq, tez-tez, ilmiy-amaliy konferentsiya, talaba, pedagog-xodim, ishtirok etmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.*

2-topshiriq. *O'zlashgan qatlamga nimalar kiradi va ularning xususiyatlari haqida aytib bering.*

3-tarqatma



1-topshiriq. *Institut, xotin-qizlar kengash, uchrashuv, bo'lib o'tmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.*

2-topshiriq. *Berilgan gapdagi fors-tojikcha so'zlarni toping va izohlang.*

Normurod Shomurodov hazratlari-chi! Ertaga tashrif buyurarmikanlar, yo'qmi? Basharti kelsa-chi, kelib, tarki odat amrimahol deganlaridek, eski odatini qilsa-chi, mashhur prinsipiialligini ko'rsatsa-chi? – degan fikr o'tdi.
(O.Yoqubov)

4-tarqatma



1-topshiriq. Talabalar, institut, turli sport, musobaqa, tashkil qilinmoq, o'tkazilmoq, voleybol, qizlar, jamoa kabi tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Berilgan so'zlarni tojikcha, arabcha, ruscha-baynalmilal so'zlarga ajratib yozing.

Osmon, oftob, bahor, barg, daraxt, gul, xona, serob, shirin, mard, jonajon, kamtar, kam, chala, balki, agar, ham, kabi, Ra'no, maorif.

5-tarqatma



1-topshiriq. Institut, talabalar, barcha, qulayliklar, laboratoriya mashg'ulot, texnik vositalar, yaratilmoq, jihozlanmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Berilgan gapda rus-yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlarni toping.

Avtomat – telefon kabinalari oldiga kelganlarida Roziya navbatda turgan yosh-yalanglar ikkovlariga qiziqib, havaslanib, ko'z tashlayotganliklarini his qildi. (P.Qodirov)

6-tarqatma



1-topshiriq. Magistratura, bo'lim, har yili, tayyorlamoq, har xil, yo'nalishlar tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Berilgan gapda rus-yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlarni toping.

Oradan uch kun o'tgach, Oyko'lga ko'chma bino bilan Toshkentdan kelgan bir lektor boradigan bo'ldi. (P.Qodirov)

7-tarqatma



1-topshiriq. Rasm asosida institut, talaba, To'maris, iste'dod, tuzilmoq, ansambl tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Berilgan so'zlarning qoraqalpoqchasini yozing va ma'nosini qiyoslang.

Inkor, manzur, nokas, notiq.

8-tarqatma



1-topshiriq. Institut, har bir mashg'ulot, tashkil etilmoq, qiziqarli, ko'rgazmali qurol, tashkil qilinmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Berilgan gapda rus-yeuroopa tillaridan o'zlashgan so'zlarni toping.

Ketidan uzun shinel kiygan qulog'ini sharf bilan o'rab olgan Achinska kirdi. (O'.Hoshimov)

9-tarqatma



1-topshiriq. Institut, xotira kun, ajdod, qabr, talabalar, ziyorat qilmoq kabi tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Berilgan gapdagi o'zlashgan so'zlarni toping.

Kun salqin bo'lishiga qaramay, ko'ylakchang bo'lib olgan ozg'in bola bir pachka papirosni ko'z-ko'z qilib,

bor ovozi bilan baqirardi.

– Papirosi nord, chekmanglar chort! (O'.Hoshimov)

10-tarqatma



1-topshiriq. Institutimiz, ko'plagan, a'lochi, talaba, tahsil olmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Berilgan so'zlarning qoraqalpoqchasini yozing va imlosidagi farqni tushuntiring.

Ohak, past, go'sht, rost

11-tarqatma



1-topshiriq. Institut, oshxona, barcha qulaylik, talaba, sifat, xizmat ko'rsatmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Berilgan so'zlarni tojikcha, arabcha, ruscha-baynalmilal so'zlarga ajratib yozing.

Osmon, oftob, bahor, barg, daraxt, gul, xona, serob, shirin, mard, husn, soat, avlod, savol brigada, zveno.

12-tarqatma



1-topshiriq. Institut, fakultet, talaba, mutaxassis, jihozlanmoq, maxsus fan xona bilan, ta'lim olmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Berilgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzing va mustaqil so'z turkumlarini ko'rsating.

O'quvchilar, bordi, sayohat, o'qituvchi, kecha.

Universitetim bilan faxrlanaman (Shevaga xos so'zlar)

1-tarqatma



1-topshiriq. Universitet, chiroyli, bir necha yil, tashkil topmoq, ko'plagan, mutaxassis, kadrlar, tayyorlamoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Berilgan gaplardan shevaga xos so'zlarni toping.

- Yozuvchi bo'psan, gazetda ishlavotsan, - deb eshitdim, shu rostmi? (O'.Hoshimov)

2-tarqatma



1-topshiriq. Prezident, universitet, tashrif buyurmoq, a'lochi talabalar, uchrashmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Berilgan gaplardan shevaga xos so'zlarni toping.

O'zizam ja, haligidaqa odamsiz-da oka! Dalavoy dadamga yuzlanib, baralla ovozda kuldi.- Qilar ishni qip qo'yib, tag'in odamni so'kib o'tiribsiz, oka. (O'.Hoshimov)

3-tarqatma



1-topshiriq. Universitetimiz, talabalar, iste'dodli, tuzilgan, ansambl, faoliyat, ko'rsatmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing

2-topshiriq. Nuqtalar o'rniga mos harflarni qo'yib so'zlarni ko'chiring. Shu so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Q...ida, ...dam, ...lam, q...vun, b...d...vl...t, muh...bba...t, ins...n.

4-tarqatma



1-topshiriq. *Universitet, talabalar, futbol jamoa, tuzilmoq kabi tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.*

2-topshiriq. *Shevaga xos so'zlarni toping.*

"Bolang ko'paymasdan yig'ishtir, razvodga boraver o'zim senga kooperativniy kvartira olib beraman", - dedilar. (O'.Hoshimov)

5-tarqatma



1-topshiriq. *Universitet, talabalar, mehnat, jamoa, harakat, yoshlar, faoliyat ko'rsatmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.*

2-topshiriq. *Berilgan gaplardan shevaga xos so'zlarni toping.*

Bu diyman, uka, gazetlaringga bizniyyam yozsa bo'lavuradimi? Yo buniyam "ohoni" bormi? (O'.Hoshimov)

6-tarqatma



1-topshiriq. *Universitet, iste'dod, talaba, ko'ngilochar, tadbir, o'tkazilib turmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.*

2-topshiriq. *Berilgan gaplardan shevaga xos so'zlarni toping.*

Ikkalamiz poyizga o'tirdig-u, qaydasan Moskov deb jo'nadik. Qavat-qavat uylar desang ko'cha to'la trollobuz, aptobus. Yer tagida poyiz yurarkan. (O'.Hoshimov)

7-tarqatma



1-topshiriq. *Universitet, bayramlar, tadbir, talaba, ishtirok, o'tkazilmoq kabi tayanch so'zlar asosida gaplar tuzing.*

2-topshiriq. *Berilgan gaplardan shevaga xos so'zlarni toping.*

Shundoqqina Qizil Maydonning oldidagi gostinisaga tushdik. Yonboshimizda bozor. Bizanikiga o'xshaganmas. Hammasi paparadka joylashgan. (O'.Hoshimov)

8-tarqatma



1-topshiriq. Har yili, universitet, topshirmoq, ta'lim olish, abituriyent, test, sinov tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Shevaga xos so'zlarni toping.

- Dutor chalish qatta, bolam qo'l o'lgur titraydi.
(O'.Hoshimov)

9-tarqatma



1-topshiriq. Rasm asosida universitet, talaba, barcha qulaylik, laboratoriya mashg'ulot, texnik vosita, yaratilmoq, jihozlanmoq tayanch so'z va birikmalar ishtirokida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Shevaga xos so'zlarni toping.

- O'ziyam ja kattasini ag'daribsiz-da, oka! -Dalavoy negadir yana kuldi. - Ha endi shunaqa ekan, bir og'iz aytmayszmi, shu ishni shundoq qilaman, deb. Axir jahon bedarvoza emas, tartib bor, zakun bor... (O'.Hoshimov)

10-tarqatma



1-topshiriq. Universitet, turli tanlov, davra suhbat, o'tkazilmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Berilgan gaplardan shevaga xos so'zlarni toping.

- Mana shu! - dedi xo'rozni amallab buti orasiga tiqayotgan tajang kishini ko'rsatib. Boshimga urde. Ho'kizdek xo'roz bilan urde! Tuyadek xo'roz bilan urde! Boshim yorilg'-o-on! (O'.Hoshimov)

11-tarqatma



1-topshiriq. Talaba, universitet, sport musobaqa, o'tkazilmoq, qizlar, jamoa kabi tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Berilgan gaplardan shevaga xos so'zlarni toping.

- Kep qoling laqqa baliq! Laqqa baliq! Qatidan qovurib beray? (O'.Hoshimov)

12-tarqatma



1-topshiriq. *Universitet, qiziqarli, uchrashuv, tadbir, o'tkazmoq, taqdirlanmoq kabi tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.*

2-topshiriq. *Feruza, xo'roz, faxr so'zlarining qoraqalpog'cha shaklini yozing.*

Hayot mening tasavvurimda (Qo'shimchalar sinonimiyasi va antonimiyasi)

1-tarqatma



1-topshiriq. *Oila qurmoq, yosh, yigit-qiz, baxtli, yashamoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.*

2-topshiriq. *Grammatik topishmoq javobini toping.*

Tovush emas, harf emas,

Tanho anglatmas ma'no.

Asoslarga qo'shilib,

Bildirar yangi ma'no.

2- tarqatma



1-topshiriq. *Katta dasturxon, oila a'zolari, ahil, yashamoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing va qo'shimchalarning turlarini aniqlang.*

2-topshiriq. *O'zbek xalq maqollaridagi qo'shimcha turlarini ayting.*

Befoyda so'zni aytma, Foydali so'zdan qaytma. Pullik – botir, pulsiz – yotir. Pullikka – kabob, bepulga – dardi kabob.

3-tarqatma



1-topshiriq. *Bobo, nevara, avlod, davomchi, yaxshi ko'rmoq tayanch so'z va birikmalari asosida gaplar tuzing.*

2-topshiriq. *Grammatik topishmoqning javobini toping.*

So'zga yangi ma'no bag'ishlar,

Yangi ma'no, jilo bag'ishlar.

Nimaligin donolar topsin,

Misol bilan ham isbotlasin.

4-tarqatma



1-topshiriq. Bolalar, shodlik, cheksiz, xiyobon, turli o'yinlar, o'ynamoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing, tarkibidagi qo'shimchalarni tahlil qiling.

2-topshiriq. Maqoldagi o'zaro antonim qo'shimchalarni toping.

Bedavlatlik bo'lgan so'ng,
Qarindoshlar g'ash bo'lur.
Badavlatlik bo'lgan so'ng,
Begonalar do'st bo'lur.

5-tarqatma



1-topshiriq. 2016-yil, sog'lom, ona va bola, atalmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing, tarkibidagi qo'shimchalarni tahlil qiling.

2-topshiriq. Gapdagi so'z yasovchi qo'shimchalarni toping.

Unda deyarli so'z yo'q, lekin bu kuy so'zsiz ham samimiy sof niyatli qalb egasining butun quvonchi, umid-orzulari va tilaklarini ifodalab beradi.

(Ch. Aytmatov)

6-tarqatma



1-topshiriq. Oilada, sog'lom, tug'ilmoq, farzandlari, sog'lom yurt, kelajak, porloq bo'lmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing, tarkibidagi qo'shimchalarni tahlil qiling.

2-topshiriq. Grammatik topishmoq javobini toping.

Kimningdir o'sgan sochi,
O'ylab ko'ring-chi To'ychi,
Qaysi -chi so'z yasovchi?
Terma, terim, terimchi,
Qanday so'zlar toping-chi?

7-tarqatma



1-topshiriq. Bobo nabira sevmok, ertak, aytib bermok, sevib tinglamoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing, tarkibidagi qo'shimchalarni tahlil qiling.

2-topshiriq. Berilgan gap tarkibidagi yasovchi qo'shimchalarni toping va ma'no munosabatiga ko'ra turini aniqlang.

Uch katta ko'chaning kesishgan joyidagi guzarda zar

yoqa to'n kiyib, bedov otlarni g'ijinglatgan mag'rur beklar, olifta bekdodalar, xitoyi shoyi to'nli, guldor mahsili davlatmandlar, eshak mingan juldur kiyimli dehqonlar, tirikchilik mashaqqati bilan zir yugurishgan xarob kosib-hunarmandlar, qandaydir bir jinoyatkorni sazoyi qilib ko'cha aylantirgan qahrli sipohilar – navkarlar, dag'al mullabo'z to'nli sokin, xayolchan, shovqin-suronga beparvo darveshlarni ko'rish mumkin. (Oybek)

8-tarqatma



1-topshiriq. Har bir, oila a'zolar, sog'ligi, nazorat, salomat pospon, tomon, o'tkazmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing va yasovchi qo'shimchalarni toping.

2-topshiriq. Berilgan gapdagi sinonim qo'shimchani toping. Navoiy ishqda vafo va sadoqat, tozalik to'g'risidagi chiroyli, ma'nodor so'zlar aytdi. (Oybek)

9-tarqatma



1-topshiriq. Qulaylik, yashamoq, ega bo'lmoq, xonadon, farovon, hayot kechirmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Gapdagi so'z yasovchi qo'shimchalarni toping.

O'zi kelinchakligida ko'p kamsitilgan, fe'li buzilib, badjahl bo'lib qolgan qaynona endi kelinini o'sha e'tiqod bo'yicha tergar edi. (P.Qodirov)

10-tarqatma



1-topshiriq. "Oila davrasida" gazeta, o'qimoq, obuna bo'lmoq, sevib, qiziqarli ma'lumot olmoq, hayot haqida tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing va qo'shimchalarni tahlil qiling.

2-topshiriq. Gapdagi so'z yasovchi qo'shimchalarni toping va ma'no turini ayting.

Hayot poyezdidan kimki tushib qolsa, u bilan qayta ko'rishmaysan. Komil bevaqt tushib qoldi... Barvaqt, hech kutilmaganda tushib qoldi... (T.Malik)

11- tarqatma



1-topshiriq. Oila, chaqaloq, dunyo kelmoq, quvonch bag'ishlamoq, uch nafar tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Gapdagi so'z yasovchi qo'shimchalarni toping.

U Cho'lponoyning tashvishini oshirmaslik uchun aytmagan notinch o'ylarini Oyko'lning muammosi va Davlatbekov masalasidagi mushkullikni Avazga gapira

boshladi. (P.Qodirov)

12- tarqatma



1-topshiriq. Pazandalik, ziynat, har bir kelin, shirin taom tayyorlamoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing. Gaplarning tarkibidagi qo'shimchalarni tahlil qiling.

2-topshiriq. Gapdagi so'z yasovchi qo'shimchalarni toping.

Kelinchak buyumlari bilan bezatilgan sertokcha uyda yettinchi chiroq qizg'ish nur sochib yonmoqda edi. (P.Qodirov)

Kitob-bilimlar xazinasi

(So'zlashuv uslubi)

1-tarqatma



1-topshiriq. Dunyoda, ko'p, ajabtovur kitob, hayrat solmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Berilgan matnning uslubi va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.

– Voy, voy o'lmasam! – dedi-da, ko'prik ustiga tappa o'tirib qoldi. – Bis-bis –bismillo... dedi duduqlanib. (O'.Hoshimov)

2-tarqatma



1-topshiriq. Har bir shahar va qishloq, bo'lmoq, kitob, do'kon, turli kitob sotib olmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Berilgan gaplarning uslubini aniqlang.

Keyin gandraklab o'rnidan turdi-da, ovozi boricha qichqirdi. – Dod-voy-dod! (O'.Hoshimov)

3- tarqatma



1-topshiriq. Kitob bo'lmoq, mavzu, bilim manba, shuning uchun, qadrlamoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Berilgan matnning uslubi va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.

Mening Oltmishvoyimdaqa yigit dunyoda yo'q – deydi Ermon buva har kungi gapini qaytarib. – Bunaqa yigitni xudo bitta yaratganu qolipini sindirib tashlagan! – Mana, hozir nemisning dodini berib yuribdi. O'ziyam Azob dengiz deganicha borda, tasadduq. Bir shamol tursa bormi, har suv ko'tariladiki, tog'dek keladi. Ammo mening Oltmishvoyim Ozobdan qo'rqmaydi. Rosa savalayapti, pashist deganni! Komandiri mazasi yo'q bola ekan! Oltmishvoy giroy bo'lib o'ldi, deb yozibdi... (O'.Hoshimov)

4-tarqatma



1-topshiriq. Respublika, bo'lib o'tmoq, kitob bayram, har yili, tanlov tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Berilgan matnning uslubi va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.

Qambarali yugurganicha kelib, Tursunali polvonning qulog'iga bir nima deb shivirladi.

– Nima? Qachon? – deb baqirib yubordidi-da, – raisga tikildi.

– Tochna bilib keldim, Batka ikkalasi ham ulibdi, – dedi Qambarali ovozini balandlatib. (T.Malik)

5-tarqatma




1-topshiriq. Barchani qiziqtirmoq, kitob, o'qimoq, sevib, ota-ona hurmatlamoq, ardoqlamoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Berilgan gapning uslubini aniqlang.

Obidov Latofatga bir qarab oldi, uning indamay labini tishlab turganini ko'rib, yelkasini uchirdi. (O.Yoqubov)

6-tarqatma



1-topshiriq. Hozir, dolzarb bo'lmoq, barcha, yoshlar, qiziqitirmoq, ingliz tili, o'rganmoq, imtihon, tayyorlanmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Quyidagi so'zlar ishtirokida gaplar tuzing va qoraqalpoq tiliga tarjima qiling.

Bilim asoslari, alanga, baxtiyor, amaliyot, isbot qilmoq, zavq, janubiy, zeb-ziynat.

7-tarqatma



1-topshiriq. Mohir, bo'lmoq, pazanda, sirlar, ogoh istamoq "Qiziqarli pazandalik", o'qimoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Nuqtalar o'rniga o', q, g' harflaridan mosini qo'yib ko'chiring. Shu so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

...atti..., ...alla, ...rtoq, ...smir, ...ator,ituvchi, ...arindosh, ...ayrat, ...azab.

8-tarqatma




1-topshiriq. Kimki, istamoq, hayot, yaxshi muomala, qilmoq, o'qimoq "Muomala sirlari" tayanch so'zlari asosida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Berilgan matnning uslubi va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.

Fors-tojikcha o'zlashmalarining o'zbek tilidagi shakli	Bu so'zlarning qoraqalpoq tilidagi shakli
Kapgir, daraxt, misgar, mix, narx, novvot	

9-tarqatma



1-topshiriq. Harbiy sirlar, jam qilmoq, "Temur tuzuklari", tanishmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing

2-topshiriq. Oxiri h harfi bilan tugaydigan so'zlarni topib yozing

Misol: Solih, sulh ...

10-tarqatma



1-topshiriq. Kaykovus, "Qobusnoma" didaktik asar, o'qimoq, bilim oshirmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Quyida berilgan so'zlarni imlo qoidasiga muvofiq yozing.

Aval, isiq, aqil, zulum, fasil, tashabus, jaji, tanafus, milion, minatdor, talafuz, muqadas, metal, gramatika.

11-tarqatma



1-topshiriq. Zulfiya, she'rlar, joy olmoq, mutolaa qilmoq, o'quvchi qalb, tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Maqollarni yodlang. Ketma-ket kelgan bir xil undoshli so'zlarni aniqlang.

Avval o'yla, keyin so'zla. Bir yigitga yetmish ikki hunar oz.

12-tarqatma



1-topshiriq. Kimki, mashhur, tanishmoq, istasa, hayot, yulduz, haqida, o'qimoq tayanch so'zlari asosida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Talaffuz qilinmaydigan undoshlarni aniqlang. Shu so'zlar yordamida gaplar tuzing.

Do'st, farzand, hunarmand, to'rt, juft, g'isht, past, go'sht, artist, Samarqand, dasht.

Adabiyot-ma'naviyat o'chog'i (Badiiy uslub)

1-tarqatma




1-topshiriq. Prezident, "Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch", ma'naviyat, munosib, hissa qo'shmoq, buyuk, alloma, batafsil, bayon qilmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Berilgan misolning uslubini aniqlang va o'ziga xos xususiyatlarini ayting.

Charxpalak xususida mening fikrim:

- 1) harakat tezligida farq yetarlimi,
- 2) nima uchun duragay navlarni ekmading!
- 3) charxpalakka tuproq to'kishda g'o'za ildizining uzunligini hisobga olmaganga o'xshaysan. Tuproq qalinligi yetarli emas, ildiz temirga borgach, g'o'za qiynaladi. (T.Malik)

2-tarqatma



1-topshiriq. "Adabiyot – ma'naviyat ko'zgusi", kitob, bo'lmoq, ma'naviyat, boyitmoq, shuning uchun, sevib o'qimoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Berilgan misolning uslubini aniqlang va o'ziga xos xususiyatlarini ayting.

Yurtim, ko'nglingdek keng osmonlaring bor,
Toshlarni yig'latgan dostonlaring bor.
O'tmishingni o'ylab og'riydi jonim
Ko'ksing to'la shahid o'g'lonlaring bor. (M.Yusuf)

3-tarqatma



1-topshiriq. G'azal mulkining sultoni, Alisher Navoiy, xalq, she'r, o'qimoq, hozirgacha, badiiy meros, bahramand bo'lmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Berilgan gapdagi badiiy tasviriy vositalarni aniqlang.

Uzoqda ko'kimtir tuman ichida mudragan tog'lar
ustida siyrak yulduzlar xira ko'z nurlarini qisadi,
dalaning salqin shamoli tinib chodirning ipagini yengil
mavjlantiradi. (Oybek)

4-tarqatma



1-topshiriq. Zahiriddin Muhammad Bobur, o'zbek adabiyot, memuar asar, mashhur bo'lmoq, "Xatti Boburiy" yozuv, yaratmoq tayanch so'z va birikmalari asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Modal so'zlar ishtirok qilgan gap yozing.

5-tarqatma



1-topshiriq. Qoraqalpoq adabiyot, asos, she'rlar, xalq, qalb, joy olmoq, Berdaq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Berilgan misolning uslubini aniqlang va ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gaplarga aylantiring

«Bug'doy noning bo'lmasin, shirin so'zing bo'lsin»,
— deydi dono xalqimiz.

6-tarqatma



1-topshiriq. Qoraqalpoq adabiyot, Ajiniyoz, she'r, xalq, qalb, joy olmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Berilgan misolning uslubini aniqlang.

Ertalab telegramma keldi. "...Buloqboshidagi qabristonni kovlashda ajabtovur buyum topildi: Tez yetib keling. Sizni Andijonda kutib olaman. Asad Mullayev".
(T.Malik)

7-tarqatma



1-topshiriq. Qoraqalpoq adabiyot, xalq, qalb joy olmoq, asar, O'zbekiston Qahramon, sevimli yozuvchi tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Gapni tuzilishiga ko'ra tahlil qiling.

Tentakka maslahat berish — ko'rga ko'zgu tutish bilan barobar.

8-tarqatma



1-topshiriq. Qoraqalpoq adabiyot, she'rlar, O'zbekiston Qahramoni, sevimli, shoir, iz qoldirmoq tayanch so'z va birikmalari asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Berilgan misolning uslubini aniqlang va o'ziga xos xususiyatlarini ayting

– O'rtoq leytenant, guvoh Hamidova bilan sakkizinchi xonada gaplashasiz, – dedi buyruq ohangida. (T.Malik)

9-tarqatma

1-topshiriq. O'zbek xalq, Muhammad Yusuf, O'zbekiston Qahramon, sevimli, erka, shoir, she'rlar, yurak joy olmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Berilgan misolning uslubini aniqlang va o'ziga xos xususiyatlarini ayting.

Dardimga tegmangiz, eslatsin hatto

Umrning bir tutam jonligini.

10-tarqatma



1-topshiriq. O'zbek adabiyot, tutmoq, sevimli, adib, Cho'lpon, "Kecha va Kunduz", asar, she'rlar, tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Berilgan misolning uslubini aniqlang va o'ziga xos xususiyatlarini ayting

Suyagimni o'ydim, o'lmadim yana,

Oh, bolam, deb kuydim! O'lmadim yana. (T. Sodiqova)

11 -tarqatma



1-topshiriq. O'zbek adabiyot, sevimli, adib, Primqul Qodirov, asar, "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni", yozmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Berilgan misolning badiiy tasvir vositalarini aniqlang.

Oftob endi ko'tarilib, kechagi yomg'irdan reza-reza ter bosgan dehqon yuziday ho'l bo'lib ketgan zaminni zarrin ro'molchasi bilan artayotgan paytda Ruqiya momo kundalik odatini takrorlab necha yillardan beri qishning qahratoni-yu yozning jaziramasi tufayli taxtalari yorilib, kepagi chiqib borayotgan o'rindiqla eri Shodiqul bobodan xotira bo'lib qolgan hassani suyab, o'zi ham o'rindiqla o'tirdi-da, cholining haqiga tilovat qilib, tuproqdan tashqarida qolib ketgan ildizday qovjirab borayotgan titroq qo'llari bilan yuziga fotiha tortdi.

12-tarqatma



1-topshiriq. O'zbek adabiyot, o'rin tutmoq, sevimli, ko'plagan she'rlar bilan, joy olmoq, shoir, Zulfiyaxonim tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Berilgan misolning uslubini aniqlang va tagiga chizilgan so'zlarning qaysi turkumga oidligini ayting.

"Otaning gaplari yuragiga jiz-jiz tegadi-yu, piq-piq kulayotgan Qo'chqorga qarab o'shirdi.

Tabiat va inson

(Ilmiy uslub)

1-tarqatma



1-topshiriq. Baland, yirik, ming yillik daraxt, bo'lmoq, chiroyli, o'rmonlar tayanch so'z va birikmalari asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Berilgan misolning uslubini aniqlang va o'ziga xos xususiyatlarini ayting.

Odamda oliy asab sistemasi bilan bog'liq bo'lgan:

1) aql; 2) idrok; 3) qobiliyat; 4) nutq; 5) mehnat qilish kabi xususiyatlar shakllanadi. Bu xususiyatlarning

irsiylanishi juda murakkab bo'lib, u genetik va ijtimoiy omillar ta'sirida amalga oshadi.

2-tarqatma

1-topshiriq. Afrika, cho'llar, bahaybat, bo'lmoq, ko'p yillik, kaktuslar, chiroyli, gullamoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Berilgan misolning uslubini aniqlang va o'ziga xos xususiyatlarini ayting

Leksikologiya - yunoncha lexikos - so'z, logos - ta'limot so'zidan tashkil topib, so'z haqidagi ta'limot degan ma'noni bildiradi. So'z lug'at tarkibining eng aniq va eng muhim qismidir.



3-tarqatma



1-topshiriq. *Tabiat, ajoyib, qushlar, bo'lmoq, dunyo, turli joy, yashamoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.*

2-topshiriq. *Berilgan misolning uslubini aniqlang va o'ziga xos xususiyatlarini ayting.*

Yer yuzida o'suvchi daraxtlarning barchasi ikki guruhga mansubdir. Birinchi guruhga kiruvchilar igna bargli bo'lib, urug'lari g'o'dda ko'rinishini oladi.

4-tarqatma



1-topshiriq. *Qoraqalpog'iston, cho'l, har xil, o'simlik, o'smoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.*

2-topshiriq. *Berilgan misolning uslubini aniqlang va sonlarni topib, turini ayting.*

Dunyodagi so'z jihatdan eng badavlat tillar bular arab va ingliz tillari bo'lib, inglizlarning hisobida ikki yarim milliondan ortiq, bo'lsa, arab tilida esa uch yarim millionda oshiq so'z bor.

5-tarqatma



1-topshiriq. *Qish, maza qilmoq, qor yog'moq, bolalar chana tortmoq, pag'a- pag'a qor yog'moq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.*

2-topshiriq. *Berilgan maqolning uslubini aniqlang va o'ziga xos xususiyatlarini ayting.*

Toma-toma ko'l bo'lur, Hech tommasa cho'l bo'lur. Ko'kka tupursang, ko'ksingga tushar.

6-tarqatma



1-topshiriq. *Tabiat uchramoq, ajoyib, ko'rgan ko'z quvontirmoq, har xil rang o'zi mujassamlashtirmoq atirgul, kamalak har xil rang ko'rinish barcha-barcha ajoyib tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.*

2-topshiriq. *Berilgan misolning uslubini aniqlang va o'ziga xos xususiyatlarini ayting.*

Dunyodagi eng kam odam gaplashadigan til bu-bikya tilidir. Bu til faqatgina Afrika qit'asining Kamerun va Nigeriya davlatlari o'rtasidagi qishloqda yashaydigan 87 yoshli kampirga tegishli.

7- tarqatma



1-topshiriq. Chet el, har xil shakl, ega, berilmoq, daraxt, ko'cha, ko'z tushmoq, chiroyli, tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Berilgan misolning uslubini aniqlang va o'ziga xos xususiyatlarini ayting.

Ahmoq do'stdan aqlli dushman yaxshi. (Maqol.)

8-tarqatma



1-topshiriq. Dunyo, borki, ko'rib, tushmay, hayrat, yo'q, iloj, mo'jiza, tayanch so'zlari asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Berilgan misoldagi atamalarni toping va o'ziga xos xususiyatlarini ayting .

O'simlik va hayvonlar organizmi hujayralardan tuzilgan. Hujayralar juda mayda bo'lib, ularni faqat mikroskopda ko'rish mumkin.

9-tarqatma



1-topshiriq. Shunday, arzimoq, tabiat qo'yni, hordiq chiqarmoq, tabiat go'zalligi, bahra olmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Berilgan misolning uslubini aniqlang va o'ziga xos xususiyatlarini ayting.

Ildiz-o'simlikning poya yoki tanasini yerga birlashtirib, tuproqdagi suv va unda erigan oziq-moddalarni shimib oladigan va ularni o'simlikning yer usti qismiga yetkazib beradigan organi.

10-tarqatma



1-topshiriq. Oqqush, noyob, tabiat, go'zallik ega bo'lmoq, kishi o'zi rom qilmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Berilgan misolning uslubini aniqlang va o'ziga xos xususiyatlarini ayting

Yirik davlat va siyosat arbobi, shoir va olim, nosir va dramaturg, ma'rifatparvar Fitrat 1886-yili Buxoroda ziyoli oilasida dunyoga keldi.

11-tarqatma



1-topshiriq. *Tabiat, ajoyib, gullar, ko'z quvontirmoq, ko'p tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.*

2-topshiriq. *Berilgan misolning uslubini aniqlang va o'ziga xos xususiyatlarini ayting.*

Tezis — asar, maqoladagi asosiy fikr va qoidani qayd qilish bo'lib, nutqda u kengaytiriladi va isbot qilinadi. Demak, tezis tuzish uchun materialni mukammal darajada o'rganib chiqish va o'z fikrini ifodalay bilish kerak bo'ladi.

12-tarqatma



1-topshiriq. *Bahor kelmoq, gullar, tabiat, burkanmoq, daraxt, chiroyli bo'lmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.*

2-topshiriq. *Berilgan misolning uslubini aniqlang va o'ziga xos xususiyatlarini ayting*

Bay- bay-bay! Muncha ham shirin uxlayapti! (A. Qahhor)

Huquq va burch

(Tasviriylar ifodalari)

1-tarqatma



1-topshiriq. *Huquq, burch, har bir shaxs, bilish lozim bo'lmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.*

2-topshiriq. *Oq oltin, kumush tola, aql gimnastikasi, samo lochinlari tasviriylar ifodalari ishtirokida gaplar yozing.*

2-tarqatma



1-topshiriq. *Qonun, adolat, joy, hukmron, jamiyat, bo'lmoq, haq talab qilmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.*

2-topshiriq. *Matndagi so'z yasovchi qo'shimchalarni toping.*

Mirzo Muhammad ibn Shohruh ibn Temur Ulug'bek Ko'rag'oniy (1394-1449) - buyuk astronom va matematik, o'z davrining ko'zga ko'ringan allomasi,

davlat arbobi, Movaraunnahrni 1441-1449-yillarda boshqargan sohibqiron va mashhur hukmdor Amir Temurning nevarasi sanaladi.

3-tarqatma



1-topshiriq. Oliy majlis, qonun, muhokama qilmoq, qabul qilmoq, deputat, qonunchilik palatasi tayanch soʻz va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Gapdagi sifatlarni toping va tahlil qiling.
Irodasiz yurak, farosatsiz aql, buzuvchi xarakterni yolgʻon fosh etadi.

4-tarqatma



1-topshiriq. Qonunlar, tabiat va jamiyat, ishlab chiqilmoq, bir necha, kitob jam boʻlmoq tayanch soʻz va birikmalari asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Otlashgan sifat doshni toping.
Ekilmagan ekinning ustidan pul olma. (Maqol)

5-tarqatma



1-topshiriq. Konstitutsiya, xalq, erk ramzi, jamlanmoq, qabul qilinmoq, mustaqillik tayanch soʻz va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. „Aql charxi oʻyini“ ni bajaring.
Toʻy qoʻshigʻi ... (4), yuz yil... (3), volida... (3), ukaning ogʻasi... (3), tomirdagi suyuqlik... (3), yozuv qatori ... (4), bahor oyi... (4).

6-tarqatma



1-topshiriq. Konstitutsiya, bayram qilinmoq, 8-dekabr, tadbir, tashkil qilinmoq, nishonlanmoq tayanch soʻz va birikmalari asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Gaplarni oʻqing. Soʻzlarni birin-ketin maʼnodoshi bilan almashtiring.
Bahor erta keldi. 2. Oyim peshanamni siladi.

7-tarqatma



1-topshiriq. *Vatan himoya, burch sanalmoq, har bir yigit, qasamyod qilmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.*

2-topshiriq. *Berilgan gapdagi tasviriy ifodani toping.*

G'azal mulkining sultoni Alisher Navoiyning bizgacha bir qancha she'riy asarlari yetib kelgan.

8-tarqatma



1-topshiriq. *Vatan sarhad, qo'llar, ishonch, mard o'g'lonlar, xalq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.*

2-topshiriq. *Maqoldagi otlashgan so'zni toping.*

*Piyozning po'sti ko'p, Yaxshining do'sti ko'p.
(Maqol)*

9-tarqatma

1-topshiriq. *Jadvalda berilgan so'zlarning tarjimasini yozing.*

O'zbekcha so'zlar	Qoraqalpoqcha tarjimasi
Javon	
Jarroh	
Jasur	
Josus	
Jumla	

2-topshiriq. *Nuqtalar o'rniga g' yoki v harflaridan mosini qo'ying va moslashuvli birikma hosil qiling.*

To..., ...oza, to...ri, o...iz, so..., bu..., o...riq, anqo...

10-tarqatma

1-topshiriq. *Tasviriy ifodalar mazmuniga mos gaplar yozing.*

Zangori olov, kumush tola, charm qo'lqop.

2-topshiriq. *Berilgan misolning uslubini aniqlang va o'ziga xos xususiyatlarini ayting.*

Predmetning son-sanog'ini bildirgan so'zlar son deyiladi.

11-tarqatma

1-topshiriq. *Sinonimlar qatoridagi so'zlarning antonimlarini topib yozing.*

Katta —

Ulkan —

1-topshiriq. *She'rdagi tasviriy ifodalarni toping.*

Sening amalingga qoyildir jahon,

Burgani taqalab qo'ygaysan oson.

Nozik san'atingga tikilaverib,

Ko'zlarim qisilib ketdi-ku, yapon. (Abdulla Oripov)

12-tarqatma

1-topshiriq. *Berilgan so'zlarni ma'no yaqinligiga ko'ra juftlarga ajrating, ular orasidagi ma'no nozikligini aniqlang.*

Yolg'onchi, sababchi, beqaror, ahdlashmoq, aldoqchi, va'dalashmoq.

2-topshiriq. *Grammatik topishmoqning javobini ayting.*

Ul ne durur, usiz gap tuzib bo'lmas,

Fikrlar daryosida hattoki suzib bo'lmas.

Salomatliging o'z qo'lingda (Ommabop nutq uslubi)

1- tarqatma



1-topshiriq. *Prezident, degan edi, "Hech narsa mamlakat sportchalik tez tanita olmaydi" sport salomatlik garov tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.*

2-topshiriq. *Berilgan misolning uslubini aniqlang va o'ziga xos xususiyatlarini ayting.*

Turkiy tillarda *f* undoshi bo'lmagan shuning uchun jonli so'zlashuvda arab, fors, rus tillardan o'zlashgan so'zlardagi «*f*» ni «*p*» ga talaffuz qilish hollari uchraydi:

ulfat – ulpat, faner – paner, ferma – perma kabi.

2-tarqatma



1-topshiriq. *Shahar, suzish suv havzasi, shug'ullanmoq, yoshlar, suv sport, rivojlantirilmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.*

2-topshiriq. *Berilgan matnning uslubini aniqlang va o'ziga xos xususiyatlarini ayting.*

O'tgan yillar, asrlar ichida ne-ne savdolar kechmadi boshingdan. Najot so'rab yolvorganlarga panoh bo'lding.

Yo'l yurib uzoqlardan kelgan karvonlarga keng dargoh bo'lding.

3-tarqatma



1-topshiriq. *Shahar, ko'plagan yosh, shug'ullanmoq, kurash, barcha qulaylik ega bo'lmoq, sport zallar tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.*

2-topshiriq. *Berilgan misolning uslubini aniqlang va o'ziga xos xususiyatlarini ayting.*

XXI asr vabosi nomini olgan giyohvandlik hozirda butun dunyoni tashvishga solmoqda. Xo'sh, dunyoni o'ylashga majbur qilayotgan giyohvandlik o'zi nima?

4-tarqatma



1-topshiriq. *Mamlakat yoshlar, chiqmoq, dunyo miqyosi, musobaqa, ko'plagan oltin medallar qo'lga kiritmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.*

2-topshiriq. *Berilgan misolning uslubini aniqlang va o'ziga xos xususiyatlarini ayting.*

Mehnat, ijod, odam sharafti,
Dil yorug'i, hayot quvonchi,
Hammasining asli manbasi,
Sen, Vatanim-tinchlik tayanchi. (S.Nazar)

5-tarqatma



1-topshiriq. *Mamlakat, sport musobaqa, uch bosqichli, bo'lmoq, namoyish qilmoq, o'z imkoniyat, sinamoq uchun, qatnashmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.*

2-topshiriq. *Uslubshunoslik fani nimani o'rgatadi?*

6-tarqatma



1-topshiriq. *Prezident, ayol-qizlar sport rivojlantirmoq, ko'plagan, ayol-qizlar orasi, chempionlar yetishmoq, chiqmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.*

2-topshiriq. *Berilgan matndagi so'zlarni mazmuniga muvofiq yozing.*

Tibbiyot, sohasidagi, Avitsenna nomi bilan mashhur yuksak kashfiyotlari bilan dunyoga dong taratgan, bo'lgan buyuk bobokalonimiz natijada jahon ilm-u fani yuksalishlar davriga qadam qo'ydi, Abu Ali ibn Sino o'zining 57-yillik umri mobaynida insoniyatga xizmat qildi.

7-tarqatma



1-topshiriq. Mashhur sportchi, tan olmoq, butun dunyo, Ravshan Ermatov, mohir sportchi tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Publitsistik uslubning o'ziga xos xususiyatlari nimada?

8-tarqatma



1-topshiriq. Mamlakat, yoshlar, sport o'yinlar, qatnashmoq, turli, sovrinli, egallamoq, o'rinlar, g'olib bo'lmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Berilgan gapning uslubini aniqlang.

Miyaga elektrod o'rnatish neyrofiziolog va nevrofiziolog, neyroxirurglar hamkorligining natijasi edi. Neyrofiziologlar, ruhiy to'lqinga asoslanib miya bo'limlariga, xususan gipotalamus va gippokampga kuchsiz elektr quvvati bilan ta'sir etish mumkinligini aniqlashgach, neyroxirurglar miyaga bir necha juft jajji elektrod o'rnatish yo'lini izlay boshladilar. (T.Malik)

9-tarqatma



1-topshiriq. Qoraqalpoq xalq, Erkin Qutibayev, tanimoq, faxr aylanmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Berilgan gapning uslubini aniqlang.

Atomlar kimyoviy bo'linmaydigan zarralardir. Bir xil turdagi atomlardan tashkil topgan moddalar oddiy moddalar deyiladi.

10-tarqatma

1-topshiriq. Berilgan so'zlarni ma'no yaqinligiga ko'ra juftlarga ajrating, ular orasidagi ma'no nozikligini aniqlang.

Diyor, yolg'iz, alanga, zim-ziyo, yorqin, kimsasiz, vatan, tuhmat, muhtoj, qorong'ilik.

2-topshiriq. "b" va "d" harflari bilan boshlanib "b", "d" bilan tugaydigan so'zlarga misol yozing.

"b" – bo'ylab, bo'lib, . . .

"d" – dod, daromad, . . .

11-tarqatma

1-topshiriq. Berilgan sinonimik qatordagi so'zlarning ma'no farqlarini tushuntiring. So'zning ijobiy va salbiy bo'yog'iga e'tibor bering.

Yuz, bet, aft, bashara, chehra, jamol, diydor, oraz, uzor, ruxsor.

2-topshiriq. Berilgan so'zlarning xatosini toping va imlo qoidalari asosida yozing.

Jixatdan, ixlim, sharoyit, mo'tadil, dexqonshilik, shorvashilik, qurg'on, shaxar, uzunlikka, tadqiqod, obot, sabzavat, uzaro, xiyobon.

12-tarqatma

1-topshiriq. Berilgan misolning uslubini aniqlang va o'ziga xos xususiyatlarini ayting.

Yigit: Nima gap, **mamashka**, tinchlikmi?

Onasi: Qayda tinchlik bo'ladi, bolam. Oysha xolaning kelini seni ko'rgan ekan, basharangdan qo'rqqanidan bolasini chala tashlab qo'yibdi. Oysha xolang seni qarg'ayapti.

2-topshiriq. Berilgan gapdan modal so'zni toping va uslubini aniqlang.

– Ha shu. Suvga tushganini uzoqdan ko'ribdi, chamamda. (T.Malik)

Tarix va zamonamiz (Rasmiy-idoraviy uslub)

1-tarqatma



1-topshiriq. Qadimiy va navqiron, shahar, Samarqand, kelmoq, dunyo turli burchak, tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Fakultet dekanining tavsifnomasini yozing.

2-tarqatma



1-topshiriq. Samarqand, "Bibixonim" ziyoratgoh, kelmoq, barcha sayyohlar, jalb qilmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Berilgan matn qaysi uslubda yozilgan?

Oh, oltin zum, shirin daqiqa, Yana keldim sohillaringga.

3-tarqatma



1-topshiriq. *Qoraqalpog'iston, joylashmoq, Chilpiq" qal'asi, necha asrlardan buyon, qad, ko'tarmoq tayanch so'zlari asosida gaplar yozing va tarkibidagi mustaqil so'zlarning tagiga chizing.*

2-topshiriq. *O'z tarjimaiy holingizni yozing.*

4-tarqatma



1-topshiriq. *O'zbekiston, tarixiy obida, o'lka, boy, dunyo turli chekka, turist, tashrif buyurmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.*

2-topshiriq. *Ishga kirish haqida ariza yozing.*

5-tarqatma



1-topshiriq. *Qadimiy va ko'hna Buxoro, aylanmoq, sayyoh, serqatnov maskan, o'z go'zallik bilan, barcha hayrat solmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing va tarkibidagi fe'llarni topib tahlil qiling.*

2-topshiriq. *Berilgan matn uslubini aniqlang*

Anchadan beri direktorimiz nomiga to'rt-beshtamiz birlashib talabnoma yozmoqchi bo'lib yuruvdik. Maktabga borib o'shani yozishga kirishdim.

“Pushkin nomli maktab
direktori o'rtoq O.Azizovga
o'quvchilar nomidan

Ariza

Biz o'quvchilar so'nggi paytda juda qiynalib ketdik, uy topshiriqlari ko'paydi, ishlashga vaqt yo'q. Shuning uchun quyidagi fanlarni dars jadvalidan vaqtincha bo'lsa ham olib tashlashingizni so'raymiz: algebra, geometriya, ona tili. Umuman olganda bu fanlarning hech kimga keragi yo'q. Boshni qotiradi, xolos. Ularning o'rni bo'sh qolmasin desangiz, fudbol haqida fan bo'lsa o'shani kiritsa ham bo'ladi. O'qituvchilikka, agar xo'p desa, o'rtoq Gennadiy Krashestskiy ham olib kirish kerak. Talabimizni amalga oshirsangiz hamma fanlardan besh olib

o'qishga so'z beramiz, sho'xlik qilmaymiz.

O'quvchilar nomidan:

Hoshimjon Ro'ziyev.

(X.To'xtaboyev)

6-tarqatma



1-topshiriq. Nukus shahri, bezamoq, ko'p qavatli turar joy bino, ko'cha, zamonaviy tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Kassadan pul olish haqida ishonchnoma yozing.

7-tarqatma



1-topshiriq. Mamlakat, chiroyli ipoteka joylar, aholi istiqomat qilmoq, barcha qulaylik ega, shinam tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Rasmiy va dolzarb xabarlar, axborotlar, e'lonlar, reportajlar va bosh maqolalar qaysi uslubda yoziladi?

8-tarqatma



1-topshiriq. Imom Buxoriy, ziyoratgoh, hamisha, gavjum tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Ilmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot bering.

9-tarqatma



1-topshiriq. Tashkent shahar markaz, chiroyli manzara, ko'z quvontirmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Bu yerda qaysi uslub haqida ma'lumot berilgan?

.... bu uslubda ko'pincha darak gaplardan, qaror, buyruq, ko'rsatma kabilardan esa buyruq gaplardan

foydalaniladi.

Shuningdek, bu uslubda gap bo'laklari odatdagi tartibda bo'lishiga rioya qilinadi.

10-tarqatma



1-topshiriq. Qadimiy shahar, Xiva, o'z, o'zi xos arxitektura bilan, ajralib turmoq, boshqa shaharlar tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Berilgan matn qaysi uslubga tegishli.

Ushbuni ko'rsatuvchi Asqarov Adham haqiqatdan ham Toshkent shahar Sobir Rahimov tumani Nodira ko'chasidagi 9-uyda turadi. Ma'lumotnoma Sobir Rahimov tumani pasport bo'limiga ko'rsatish uchun berildi.

Mahalla komissiyasi raisi

(N.Xoliqov)

Kotib

(SH.Ahmedov)

11-tarqatma



1-topshiriq. Qorapalpog'iston, qadimiy, boy, qal'alar, diyor tayanch so'zlari asosida gaplar yozing va yordamchi so'zlarni aniqlab tagiga chizing.

2-topshiriq. Berilgan matndagi modal so'zlarni aniqlang.

Direktor tilxatsiz ham hech qayoqqa ketmaydi, hozir terim payti. Umuman, keskin choralaringizga vaqt bor. Avvalambor, prokuror sanksiya bermaydi. Hozircha gaplaringiz xom. Aniq dalillarimiz yo'q. (T.Malik)

12-tarqatma




1-topshiriq. Qoraqalpog'iston, Xo'jayli, tuman, "Nozlimxonsuluv" maqbara, o'z xos, qurilmoq, uslub, kishi hayrat solmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing va tarkibidagi sifatlarni aniqlang.

2-topshiriq. Berilgan gap uslubini aniqlang va sifat so'z turkumiga oid so'zlarni toping va turini ayting.

— Ilmiy ishning asosiy xulosalardan biri oqava suvlardan qayta foydalanish muammolariga bag'ishlangan ya'ni bu suvlar ... mineral tuzlar miqdori besh foizga chiqquncha ... ularni ishlatish mumkin, degan yakun yasalgan. (O.Yoqubov)

Xizmat ko'rsatish madaniyati (Sintaktik aloqa turlari)

1-tarqatma



1-topshiriq. *Shahrimiz, bor, ko'plagan, xizmat ko'rsatish, yaxshi yo'l, qo'yilmoq, "Toshkent" mehmonxona, markaz joylashmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.*

2-topshiriq. *Quyidagi so'zlarning birikish usullarini ayting.*

Onamga olmoq, ozodlik uchun kurashmoq, Mustaqillik bayrami, olimning fikri.

2-tarqatma

1-topshiriq. *Berilgan gapdagi sintaktik aloqa vositalarini aniqlang.*

O'zbek tili mashg'ulotlarida ta'limning qaysi prinsiplariga amal qilgan ma'qul?

2-topshiriq. *Sintaktik aloqa turlarini ayting va misollar keltiring.*

3-tarqatma



1-topshiriq. *Shahrimiz "Agro bank", "Milliy bank", "Aloqa bank", "Xalq bank", "Asaka bank" kabi banklar, ko'rsatmoq, aholi, xizmat tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.*

2-topshiriq. *Quyidagi ta'rif qaysi uslubga xos?*

Yozma nutq shakliga amal qilinadi. Ifoda aniq, ixcham, izchil va tushunarli bo'ladi.

Tasviriylilik va ma'joziylilik ishlatilmaydi.

Buyurish va undash ohangi kuchli bo'ladi.

4-tarqatma



1-topshiriq. *Shahrimiz, barcha kofe va restoran, hamisha, gaojum, xo'rranda bilan tayanch so'z va birikmalari asosida gaplar yozing.*

2-topshiriq. *Berilgan gapning birikish usulini ayting.*

Yetti kun - bir hafta. Bir hafta -yetti kundur.

5-tarqatma



1-topshiriq. Respublika, xizmat ko'rsatmoq, erkak va ayol, sartaoshlik salon, sifatli tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Nuqtalar o'rniga **d** yoki **t** harflaridan mosini qo'ying va so'z birikmalarini hosil qilib, birikish usullarini ayting.

Mada., ban..., oqiba..., jasa..., rasama..., qan..., nadoma..., hasa..., zab..., tahdi..., sobi..., gar..., tanqi..

6-tarqatma

1-topshiriq. Quyidagi grammatik topishmoqning javobini ayting va so'zlarning o'zaro birikish usullarini toping.

Doim turar tippa-tik,
O'zi juda tetik.
Dilga hayajon solar,
Gohi buyruq ham berar.

2-topshiriq. Nuqtalar o'rniga **s** yoki **sh** harflaridan mosini qo'ying va so'z birikmalarini hosil qilib birikish usullarini ayting

...amol, ...olg'om, ...oli, bo..., to..., qi..., ...och, aso..., olmo..., ...atil

7-tarqatma



1-topshiriq. Shahrimiz, uchratish mumkin, har bir burchagi, texnik uskana ta'mirlash ustaxona, aholi sifatli xizmat ko'rsatmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing va so'zlarning o'zaro birikish usullarini ayting.

2-topshiriq. Berilgan gapdagi sintaktik aloqa vositalarini aniqlang va turini ayting.

Sizning fikrlash qobiliyatingizni shakllantiruvchi eng yaxshi vosita kitoblardir...

8-tarqatma



1-topshiriq. Avtomobil ta'mirlash shaxobchalar, ko'rsatmoq, xalq, sifatli xizmat tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Nuqtalar o'rniga **g** yoki **k** harflaridan mosini qo'ying va so'z birikmalarini hosil qiling.

...uzar, ...enja, ...ovush, ...uz, ...umon, ...umush, ...urash, ...urak, ...alit, ...alla.

9-tarqatma



1-topshiriq. *Shahri, savdo shaxobcha, “Bolalar dunyosi”, aholi beminnat xizmat ko’rsatmoq tayanch so’z va birikmalar asosida gaplar yozing.*

2-topshiriq. *Nuqtalar o’rniga f yoki p harflaridan mosini qo’ying va boshqaruqli so’z birikmalarini hosil qiling.*

...oyda, ...arq, ka...tar, ...armon, ...ikr.

10-tarqatma



1-topshiriq. *Hozirgi kun, joy, ko’plagan kiyim tikish sexlar, xizmat, aholiga, sifatli, ko’rsatmoq tayanch so’z va birikmalar asosida gaplar yozing.*

2-topshiriq. *Nuqtalar o’rniga y yoki j harflaridan mosini qo’ying va bitishuvli birikma hosil qiling.*

...igit, ...aproq, ...avhar, ...osh, ...ordam, gi...da, ...o’lovchi, ...umush, ...iyda, ..ulduz, ilo..., ...odu, ...on.

11-tarqatma

1-topshiriq. *Quyidagi rebusda tushib qolgan harfarni qo’ying:*

X	U		S		N	
F		R		A	N	
P	O		T		X	

2-topshiriq. *Berilgan so’zlarni iboralar bilan almashtiring, ular yordamida gaplar tuzing.*

Gapirmadi, toza, yuvosh, rahmdil, kutdi, qo’rqdi, chaqqon, ko’p gapirdi.

12-tarqatma

1-topshiriq. *Mehnat - baxt keltirar.*

Mehnat haqidagi maqollarni davom ettiring va tarkibidagi otlarni topib sintaktik tahlil qiling.

2-topshiriq. *Quyidagi so’zlarni qoraqalpochcha tarjimasini yozing va yozuvdagi farqini ayting.*

Ma’naviyat, kuch, umr, ikki.

Ustoz maktabi
(Frazologik birliklarning turlari va uslubiy xususiyatlari)

1-tarqatma



1-topshiriq. Matndagi so'zlarni mazmuniga mos ravishda yozing.

O'zining takrorlanmas ijodi, go'zal san'ati va ajoyib mahorati bilan, tarixda sezilarli iz qoldirgan, hissa qo'shgan zabardast musavvir Kamoliddin Behzod Hirotda 1455, nafaqat Sharq xalqlari, balki butun dunyo xalqlari madaniyati uning taraqqiyoti uchun barakali yilda hunarmand-kosib oilasida dunyoga kelgan.

2-topshiriq. Grammatik topishmoqning javobini toping.

Gaplarni tez bog'ladi,
Dilimizni chog'ladi.
O'zi kichik bo'lsa ham,
Kattalarni bopladi.

2-tarqatma



1-topshiriq. Tib qonunlari, muallif, o'rta asr, ijod qilmoq, Ibn Sino, tibbiyot, hozirgacha, qo'llanmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing va tarkibidagi otlarni aniqlang.

2-topshiriq. Berilgan gapdagi iborani aniqlang.
Hafsalam pir bo'lib to'xtab qoldim.

3-tarqatma



Mirzo Ulug'bek

1-topshiriq. Mirzo Ulug'bek, olim, astronom, rasadxona, qurdirmoq, yulduz haqidagi, kashfiyot qilmoq, o'rta asrlar yashamoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Berilgan gapdagi iborani aniqlang.
Qambar ota javob ololmagach, tog'larga ko'z tashladi.

4-tarqatma

1-topshiriq. *Son bilan ifodalangan quyidagi frazeologizmlarning ma'nosini ayting va eslab qoling.*

Bir gapirib o'n kuladigan –

Bir yostiqa bosh qo'ymoq –

Ikki oyoqni bir etikka tiqmoq-

2-topshiriq. *Berilgan gapdagi iborani aniqlang va gapni qoraqalpoq tiliga tarjima qiling.*

Normani bajarmayotgan kishilar Davlatbekovning hech balodan qaytmaydigan qattiqqo'l kishi ekanini yana bir marta sezishib, durustroq ishlay boshlashdi. (P.Qodirov)

5-tarqatma

1-topshiriq. *Berilgan iboralarni qarama - qarshi ma'noli iboralar bilan almashtiring.*

Ko'ngli oq -

Ko'zi och -.....

2-topshiriq. *Berilgan gapdagi iborani aniqlang.*

Birdan qamish kapaga ko'zi tushib to'xtadi. (S.Ahmad)

6-tarqatma

1-topshiriq. *Quyidagi iboralarning ma'nosini aniqlang va ular ishtirokida gaplar tuzing.*

Ko'ngli joyiga tushdi. Tepa sochi tikka bo'ldi. Xamirdan qil sug'urganday.

2-topshiriq. *Berilgan gapdagi iborani aniqlang.*

Endi u to'qaydan chiqolmay, sharmandalik, yuzi qoralik bilan jon berdi. (S.Ahmad)

7-tarqatma



1-topshiriq. *Folklorchi, geograf, tarixchi, asos solmoq, Mahmud ibn al-Husayn ibn Muhammad Koshg'ariy, ensiklopediya, qomusiy olim, tilshunos, leksikograf, etnograf tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.*

2-topshiriq. *Berilgan gapdagi iborani aniqlang.*

To to'qaydan chiqishguncha ham ular bir-birlariga churq etib og'iz ochishmadi. (S.Ahmad)

8-tarqatma



1-topshiriq. Al-xorazmiy Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (taxm. 780-850 yillarda yashagan) mashhur O'rta Osiyolik turkiy qomusiy olimdir.

Matnni davom ettira olasizmi?

2-topshiriq. Berilgan gapdagi iborani aniqlang.

Sattor aqli aytib turgan bu gaplarga qalbi quloq solmadi. (P.Qodirov)

9-tarqatma




1-topshiriq. Musulmon olamidagi eng zabardast donishmandlardan biri buyuk vatandoshimiz shayx Najmiddin Kubrodir...

Buyuk alloma haqida yana qanday ma'lumotlarga egasiz?

2-topshiriq. Berilgan gapdagi iborani aniqlang.

Dalavoy negadir yana kuldi. – Ha, endi shunaqa ekan, bir og'iz aytmay sizlarmi. (O'.Hoshimov)

10-tarqatma



1-topshiriq. Matndagi mustaqil so'zlarni aniqlang va morfologik tahlil qiling.

Ulug' faylasuf, shoir, munajjim, matematik va tabib bo'lgan G'iyosiddin Abulfath Umar ibn Ibrohim Xayyom Nishopuriy Eronning Nishopur shahrida tug'ilgan.

2-topshiriq. Berilgan gapdagi iborani aniqlang.

Yugurib borarkanman, yig'lardim, nimaga yig'layotganimni o'zim ham bilmasdim-u, hech o'takamni tutolmasdim.


11-tarqatma

1-topshiriq. Berilgan gapni leksik tahlil qiling.

Turkiy xalqlar azal-azaldan bir-birlari bilan ahil-inoq, yonma-yon jon qo'shni sifatida hayot kechirib kelganlar.

2-topshiriq. Tarkibida ibora ishtirok etgan gap yozing.

12-tarqatma



1-topshiriq. O'rta asrning buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy zamonasining qator fanlari: astronomiya, fizika, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, tarix kabilarni chuqur o'rgandi. Olim haqida yana qanday ma'lumotlarga egasiz? Matnni davom ettira olasizmi?

2-topshiriq. Berilgan gapdagi iborani aniqlang va gapni sintaktik tahlil qiling.

Murodjon akamga aytuvdim, jahllari chiqdi.

Kashfiyotlar olamida

(Grammatik ma'no hosil qiluvchi vositalar)

1-tarqatma



1-topshiriq. Aleksandr Bell, kashf qilmoq, telefon apparat, 1876-yilda tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Matnni ifodali o'qing va grammatik ma'no hosil qiluvchi vositalarni toping.

Xusrav o'z kunlarini shunday taqsimlabdi:

— Shamol esib turgan kun uxlash uchun juda yaxshi, havo bulutli bo'lsa — shikor ayni muddao, yomg'ir yog'ib tursa — may ichish va bazmi jamshidga ne yetsin, oftob charaqlab turgan kun yumushlar bilan shug'ullanishga qulay. (Navoiy)

2-tarqatma



1-topshiriq. 2001-yil, kashf qilmoq, iPad, Steve Jobs, qulaylikka ega tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing va tarkibidagi sonlarni topib ma'no turini ayting.

2-topshiriq. Berilgan maqoldagi grammatik ma'no hosil qiluvchi vositalarni toping.

Qattiq baqirgan bilan qo'shiqchi bo'lmas. (Maqol)

3-tarqatma




1-topshiriq. Fudzio Masuoka, ixtiro qilmoq, flesh xotira, 1984-yil, o'ziga xos, ajoyib tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Matnni o'qib, sifatlarni ajratib yozing va grammatik ma'no hosil qiluvchi vositalarni toping.

Piring kuchli bo'lguncha, Biliming kuchli bo'lsin.

4-tarqatma



1-topshiriq. Mogridj Uilliam, ixtiro qilmoq, notebook, 1979-yil, ixcham va qulay tayanch soʻz va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Matnni oʻqib, otlarni ajratib yozing va grammatik maʼno hosil qiluvchi vositalarni toping.

Uchishga qanot kerak,
Oʻqishga – toqat.(Maqol)

5-tarqatma



1-topshiriq. Tomas Edison, ixtiro, elektr, chiroq, 1880-yil, olamshumul kashfiyot, qilmoq tayanch soʻz va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Matnni oʻqib, feʼllarni ajratib yozing va grammatik maʼno hosil qiluvchi vositalarni toping.

Yolgʻon — xoinlik belgisidir. U bilimning ayniganini, fikrning soxtalashganini koʻrsatadi.

6-tarqatma



1-topshiriq. Martin Kuper, ixtiro qilmoq, mobil telefon, 1973-yil, tarix qolmoq tayanch soʻz va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Berilgan gapni oʻqib, olmoshlarni ajratib yozing va grammatik maʼno hosil qiluvchi vositalarni toping.

Sendan baland turganga boʻysunsang, shunda oʻzingdan past turgan senga boʻysunadi.

7-tarqatma



1-topshiriq. Jeyms Rassel, lazerli disk, ixtiro qilmoq, 1971-yil tayanch soʻz va birikmalar asosida gaplar yozing va grammatik maʼno hosil qiluvchi vositalarni toping.

2-topshiriq. Tarkibida sinonimlar qoʻllangan gapni yozing.

A. Chol-kampir dalaga chiqdi.

B. Toshni otdan uzoqqa ot.

C. Xalq gʻamida tepmagan yurak qalb emas.

8-tarqatma



1-topshiriq. Chester Karlson, kseroks, 1938-yil, ixtiro qilmoq, kashfiyot, ko'paytirmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Nuqtalar o'rniga qavs ichidagi ot yasovchi qo'shimchalardan mosini qo'yib ko'chiring.

Yomonning bir qil. . (-iq,-ik, -ig')i ortiq.

9-tarqatma



1-topshiriq. Jozef Nisefor Nyeps, fotoapparat, ixtiro qilmoq, 1816 -yil tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing va grammatik ma'no hosil qiluvchi vositalarni toping.

2-topshiriq. Berilgan ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gaplarga aylantiring.

«Xalq g'ayrat qilsa, umidi tush bo'lib qolmaydi»,
— dedi Sayramov ma'nodor kulib.

10-tarqatma



1-topshiriq. Valdemar Paulsen, ixtiro qilmoq, magnitofon, 1896-yil, ajoyib, kashfiyot bo'lmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Ikkala ustundagi yozuvlarni chog'ishtiring. Ularning farqlarini ayting.

stol – yozuv stoli;

ot – chopqir ot;

qo'g'irchoq – chiroyli qo'g'irchoq.

11-tarqatma



1-topshiriq. Birt Acres, 1896-yil, ixtiro qilmoq, videokamera tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing va grammatik ma'no hosil qiluvchi vositalarni toping.

2-topshiriq. Maqolning ma'nosini izohlang va morfologik tahlil qiling.

Qizning ko'rki – noz, Yigitning ko'rki – hunar.(Maqol)

12-tarqatma



1-topshiriq. Aleksandr Popov, rus olim, radio, 1895-yil, ixtiro qilmoq tayanch soʻz va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Matnni oʻqib, maʼnosini izohlang va morfologik tahlil qiling.

Buyuk Iskandardan soʻrashdi:

- Sen nima uchun ustozingni otangdan koʻra koʻproq hurmat qilasan?
- Otam menga foniy dunyoni baxsh etdi, ustozim esa boqiy dunyoni...

Yetuk mutaxassis boʻlaman

(Gapda soʻz tartibi va gap boʻlaklarining tushib qolishi)

1-tarqatma



1-topshiriq. Bogʻcha borish, bogʻcha opa, yaxshi koʻrmoq, biz, juda qiziq oʻyinlar, oʻynatmoq tayanch soʻz va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Berilgan misolning gap boʻlagi tartibini aniqlang.

Naʼmatak

Nafis chayqaladi bir tup naʼmatak
Yuksakda shamolning belanchagida.
Quyoshga koʻtarib bir savat oq gul,
Yiroqda oʻshshaygan qoya labida.

2-tarqatma

1-topshiriq. Tanlamoq, harbiy, qoʻshin, xizmat qilmoq, Vatan, himoya qilmoq tayanch soʻz va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Berilgan misolning qaysi gap boʻlagi tushganligini aniqlang va gap turini ayting.

- Ha, nima boʻldi? – deb soʻradi dagʻal ovozda.
- ...
- Soʻroq qildimi?
- Agronom bilan munosabatlaring qanaqa edi, – deb soʻradi.
- Xoʻsh?
- Indamadim. (T.Malik)

3- tarqatma



1-topshiriq. Mohir quruvchi bo'lmoq, shahrimiz, qurmoq, zamonaviy, baland, chiroyli tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Berilgan gaplarning qaysi bo'lagi tushganligini aniqlang va gap turini ayting.

- Ular (qushlar) qayoqqa ketishyapti?
- Qish bo'lmaydigan taraflarga ketishar ekan.
- Qish bo'lmaydigan joylar ham bormi?
- Bor.

4- tarqatma



1-topshiriq. Mohir pedagog, xohlamoq, o'quvchilar, bilim bermoq, tarbiyalamoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. To'liq gaplarni to'liqsiz gaplarga aylantirib dialogni davom ettiring

- Nodir bugun kutubxonaga borasanmi?
- Ha, do'stim, darsdan keyin boraman.

5- tarqatma



1-topshiriq. Men, operator, yetuk, o'qimoq, o'z kasbi ustasi bo'lmoq uchun a'lo baho tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Berilgan gapning uslubini aniqlang va o'ziga xos xususiyatlarini ayting.

Kuni kecha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining yigirma besh yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risidagi qarori qabul qilindi.

6- tarqatma



1-topshiriq. Sport, sevmoq, sog' tan sog'lom aql, yashamoq, uzoq umr ko'rmoq, shug'ullanmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Berilgan gapning uslubini aniqlang va o'ziga xos xususiyatlarini ayting.

Alisher Navoiy Nizomiy Ganjaviy va Xisrav Dehlaviy "Xamsa"lariga bir butun, yaxlit asar sifatida qaradi, o'zbek tilida turli mavzularda mustaqil dostonlar emas, balki bir-birini g'oyaviy-badiiy

jihatdan ma'lum darajada to'ldiradigan, yaxlit bir asar deb hisoblanishi va "Xamsa" deb atalishi shart bo'lgan dostonlar majmuyini yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

7- tarqatma



1-topshiriq. *Jurnalist, bo'lmoq, kasb tanlamoq, ko'p, bilim, talab qilmoq, odamlar, suhbatlashmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.*

2-topshiriq. *Ilmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari haqida gapiring.*

8-tarqatma



1-topshiriq. *Tikuvchik, yaxshi ko'rmoq, shug'ullanmoq, orzu qilmoq, ko'ylaklar, tikmoq, chiroyli, zamonaviy tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.*

2-topshiriq. *Rasmiy ish uslublari qaysi holatlarda qo'llaniladi?*

9-tarqatma



1-topshiriq. *Fan sirlar, o'rganmoq, tadqiqodchi bo'lmoq, izlanish olib bormoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.*

2-topshiriq. *Oddiy so'zlashuv uslubiga oid matn tuzing.*

10-tarqatma



1-topshiriq. *Axborot texnologiya, bo'lmoq, texnik xodim barcha soha tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.*

2-topshiriq. *Qaysi uslubda til vositalaridan erkin foydalaniladi?*

11- tarqatma



1-topshiriq. *San'atkor bo'lmoq, zavq ulashmoq, kasb sevmok tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.*

2-topshiriq. *Ushbu matn qaysi uslubda yozilgan?*

Aylanay, mehmon, kimdan xafa bo'lib turdingiz? O'zim girgittan bo'lay? Kim ozor berdi? Ayting.

12-tarqatma

1-topshiriq. *Berilgan misoldagi gap bo'laklarining tartibini aniqlang.*

Yashna yuksal, diyorim,

Sensan baxtim, bahorim.

Madhing jo'shib kuylamoq

Ko'nglimdagi shiorim. (M.Dadaboyev)

2-topshiriq. *Ushbu matn qaysi uslubda yozilgan?*

Modal so'zlar- so'zlovchining bildirgan fikriga qo'shimcha munosabatini ifodalovchi so'zlar guruhi.

Yoshlar tashabbusi

(Bog'langan va bog'lovchisiz qo'shma gaplarning o'zaro ma'nodoshligi)

1-tarqatma



1-topshiriq. *Yosh, dunyo miqyos, xalqaro, fan olimpiada faxrli o'rinlar olmoq, oltin medallar bilan taqdirlanmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.*

2-topshiriq. *Quyidagi gaplarning tuzilishiga ko'ra sodda yoki qo'shma ekanligini aniqlang.*

1. Onasi ularni kuzatib qaytib kirsam, o'g'li kiyim-boshi bilan karavotda cho'zilib yotibdi. 2. Ertasiga ham mavrid bo'lmadi. 3. Shamol kuchayib olovning tili yana ham uzunlashdi. U yashin tezligida qamishlarni yamlab borardi.

2- tarqatma



1-topshiriq. *Prezidentimiz, farzand, bilimli, kuchli, albatta, baxtli, shunday, yosh, ko'plagan, topilmoq, yoshlarimiz, oramizda tayanch so'z va birikmalari asosida gaplar yozing.*

2-topshiriq. *Quyidagi gaplarning tuzilishiga ko'ra turini aniqlang.*

Tabiat odamni asraydi, boqadi, ko'nglini ko'taradi, charchog'ini yozadi. Chunki u ona tabiatdir.

3- tarqatma

1-topshiriq. Berilgan misolning uslubini aniqlang va o'ziga xos xususiyatlarini ayting.

Fe'lda ish-harakat bilan uning bajaruvchisi orasidagi munosabatning ifodalanishi fe'l nisbati deyiladi.

2-topshiriq. Berilgan gaplardagi xato yozilgan so'zlarni toping.

1. Har kim Vatanini yoqchi ko'radi. 2. Vatanimizning rivojlanishiga biz yoshlar o'z hissalarimizdi qo'shishimiz kerak.

4-tarqatma



1-topshiriq. O'zbekiston, bayroq, ko'tarmoq, dunyo, tanitmoq, ko'z-ko'z qilmoq, chet el, o'zini tayanch so'z va birikmalari asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Berilgan matnning uslubini aniqlang.

Adabiy tilning uslubiy sistemasi jargon, mahalliy, dialekt va shu kabi tildagi boshqa hodisalar bilan ham ma'lum munosabatda bo'ladi.

5-tarqatma



1-topshiriq. Zulfiyaxonim qizlari, ortmoq, saf, kundan-kun, turli yo'nalishlar bo'yicha, mukofot sazovor bo'lmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Ilmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari haqida gapiring.

6-tarqatma

1-topshiriq. Ushbu matn qaysi uslubda yozilgan?

Haqiqatan ham, yurtimizda mustaqillik yillarida bu borada keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, 2016-yilning «Sog'lom ona va bola» yili deb belgilanishi va borada olib borilayotgan ishlar diqqatga sazovordir.

2-topshiriq. Tushirib qoldirilgan undoshlarning o'z o'rniga qo'yib so'zlarni ko'chiring va so'z birikmalari hosil qiling.

Makta..., obo..., dokla..., daroma..., mada..., zumra..., hasa..., g'aza..., yuzla...,

7- tarqatma



1-topshiriq. Mamlakatimiz, Kamolot, uyushma, tashkil qilinmoq, bir qancha yoshlar, birlashtirmoq tayanch so'z va birikmalari asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Berilgan matnni tarjima qiling va uslubini aniqlang.

Qobiliyat kishining biror faoliyat yuzasidan layoqatini va imkoniyatini ifodalovchi ruhiy

xususiyatdir.

8- tarqatma



1-topshiriq. Hozir kun, "Mening biznes g'oyam" bo'lib, yoshlar orasi, g'olib chiqmoq, tanlov ishtirok etmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Quyidagi matn uslubini aniqlang.

Boyliging unutsang, mayliga, unut,
Mansabing unutsang, mayliga, unut,
Agarda unutsang ona tilingni,
Zaharga aylansin onang bergan sut.

9- tarqatma



1-topshiriq. Mamlakat, yosh respublika, miqyos, tanlovlar, ishtirok etmoq, taqdirlamoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. To'liqsiz gapga misol keltiring va izohlang.

10- tarqatma



1-topshiriq. Mustaqillik maydon, respublika yoshlar, tashrif, buyurmoq, faol, tantanalar ishtirok etmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Berilgan ta'rif qaysi bo'limga tegishli ekanligini ayting.

...fikir ifodalash usullarini o'rganadi. Shunga ko'ra, u kundalik hayotimizda so'z qo'llashning barcha

tarmoqlari bilan bog'liqdir.

11-tarqatma



1-topshiriq. Har yili, o'tkazilmoq, yoshlar festivallari, joylar an'ana aylanmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Berilgan ta'rif nima haqida ekanligini ayting va misollar keltiring.

... faqat muayyan hududga xos ayrim belgini o'zida namoyon qilgan til shakli. Ular asosan uch lahjadan tashkil topgan. qarluq, o'g'uz, qipchoq.

12-tarqatma



1-topshiriq. Talaba yoshlar, oliy ta'lim muassasalar, bunyodkor yoshlar mehnat harakat, ta'til, faoliyat yuritmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Bog'langan qo'shma gaplarga misollar keltiring.

Ma'rifat o'choqlari
(Matn va uning ko'rinishlari)

1-tarqatma



1-topshiriq. Shahar, joylashmoq, muzey, Savitskiy, dunyo mashhur, taniqli, tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Quyidagi matnning turini aniqlang.

- Assalomu alaykum.
- Vaalaykum assalom.
- Yaxshimisiz.

- Yaxshi, rahmat. O'zingiz yaxshimisiz?

- Rahmat, yaxshi.

2- tarqatma



1-topshiriq. Prezident, tashrif buyurmoq, muzey, eksponat, tanishmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Quyidagi so'zlarning qoraqalpoqcha tarjimasini yozing va imlosidagi farqni tushuntiring.

Arslon, tarix, fasl, loy, ovoz.

3- tarqatma



1-topshiriq. *Sahna asar, tomoshabin, ma'rifat, taratmoq, ziyo ulashmoq tayanch so'z va birikmalari asosida gaplar yozing.*

2- topshiriq. *Quyidagi matn turini aniqlang.*

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan beri sportchilarimiz ishtirok etgan Olimpiada musobaqalari ichida bu yilgi o'sish diqqatga sazovordir.

4-tarqatma



1-topshiriq. *Shahrimiz, joylashmoq, ma'rifat o'choqi, qo'g'irchoq teatri, kino zallar, teatr binolari, qad ko'tarmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.*

2-topshiriq. *Quyidagi matn turini aniqlang va tarjima qiling.*

Kamtarlik insonni bezaydigan fazilatdir. Shaxsning yuqori darajadagi madaniyat sohibi ekanligini ko'rsatuvchi xususiyat hisoblanadi. Xalqimizda «Kamtarga kamol, manmanga zavol» degan hikmat bor.

5- tarqatma



1-topshiriq. *Muzey, chet ellik sayyohlar, qiziqitirmoq, tashrif buyurmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.*

2-topshiriq. *Quyidagi matn turini aniqlang.*

Siz biror tanishingizga, qarindoshingiz yoki o'rtog'ingizga pochta orqali xat yuborgan bo'lishingiz tabiiy hol. Elektron pochta yordamida xat yuborish xuddi oddiy xat yuborish kabi, xatni qayerga, kimga, qaysi manzilga va kimdanligi yoziladi. Xat yuborilgach u elektron "quti"ga va zudlik bilan shaxsiy manzil "quti" sig'a tushadi.

6- tarqatma



1-topshiriq. *Ma'rifatparvar, ijodkor, Abdulla Avloniy, «Birinchi muallim» («Muallimi avval», 1909), «Ikkinchi muallim» «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» yozmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.*

2-topshiriq. *Quyidagi matn turini aniqlang va badiiy tasvir vositalarini aniqlang...*

Bobur ham bolaligi o'tgan Andijon osmonini esladi. Mana shu Yetti og'ayni yulduzlari o'sha yerda ham Oltin

qoziqni aylanib o'tib, g'arbga botib ketardi. O'sha yerda ham Yetti o'g'ayni ufqqa bosh qo'ygani sari Hulkar yulduzlari osmonning baland joylariga chiqib borardi. (P.Qodirov)

7- tarqatma



1-topshiriq. Behbudiy jadidchilik harakati namoyandalaridan bo'lib, Samarqandda yangi usuldagi maktablar ochdi, 1913-yilda «Samarqand» gazetasi va «Oina» jurnalini nashr etishda bosh-qosh bo'ldi, Turkistonning davlat tili to'g'risidagi dekret loyihasini tayyorlashda jonbozlik ko'rsatdi..., *ma'rifatparvar ijodkor haqida yana qanday ma'lumotga egasiz?*

2-topshiriq. *Quyidagi matn turini aniqlang va tarjima qiling.*

G'oya– biror ish-harakatni amalga oshirish haqidagi fikr, niyat, shuningdek, dunyoqarashning asosiy printsiplari. G'oya doimo ezgulikka xizmat qilishi kerak. Shunda uning amalga oshishi oson kechadi, insonlar ana shu g'oya yo'lida birlashadilar.

8-tarqatma



1-topshiriq. *Nukus shahri, joylashmoq, qanchadan-qancha, bilim bermog, yosh, sport sir, o'rgatmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.*

2-topshiriq. *Quyidagi matn turini aniqlang va qaysi uslubga oidligini ayting.*

- Nukusga bilet bormi?
- Bugungami?

- Ha, bugunga.
- Bor.

9- tarqatma



1-topshiriq. *O'zbek ma'rifatparvarlari, Abdurauf Fitrat, mashhur bo'lmoq, ma'rifatparvarlik g'oyalar, targ'ib qilmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.*

2-topshiriq. *Quyidagi matn turini aniqlang va qaysi uslubga oidligini ayting.*

Haqiqat

Shu qadar shirinki, totib ko'rging keladi. Shu qadar achchiqki, tilingni kuydiradi. (O'.Hoshimov)

10-tarqatma

1-topshiriq. Quyidagi ta'rif nimaga tegishliligini ayting.

Bosh soʻzning talabi bilan ergash soʻzning maʼlum grammatik vositani olishi ... deyiladi. Masalan: uyga ketish, shaharda yashash, sayr haqida suhbat, sayohat toʻgʻrisida gapirish.

2-topshiriq. Ilmiy uslubga misol yozing.

11-tarqatma



1-topshiriq. Hozirgi kun, aylanmoq, taʼlim maskan, akademik litseylar, maʼrifat oʻchoqlar, hisoblanmoq tayanch soʻz va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Matnning uslubini aniqlang.

Aql kirishi uchun aql tishi chiqishini kutib oʻtirish shart emas. (Oʻ.Hoshimov)

12-tarqatma

1-topshiriq. Quyidagi berilgan linvord topshiriqlarini bajaring.

Zabon	Xalq ogʻ zaki ijodi	Qarsak	Tropik meva	Hayo	Yovuz	Oʻzbek avtosi	Yozuvchi shoir	Oraliq
Oltin	Spektakldan lavha	Boʻyi past	...etmoq, erishmoq	Yuz, chehra	Dadil	Burjlardan biri	Soʻz	

2-topshiriq. Matnning uslubini aniqlang.

Bobolardan soʻzladim, ammo
 Bir zot borkim, baridan suyuk:
 Buyuklarga baxsh etgan daho,
 Ona xalqim, oʻzingsan buyuk.

Milliy qadriyatlar e'zozi (Dialogik matn turlari)

1-tarqatma



1-topshiriq. Xalq, e'zozlanmoq, azal-azaldan, keksa, sovg'alar ulashmoq, holi xabar olmoq tayanch so'z va birikmalari asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Grammatik topishmoqning javobini toping
Bildirar his-hayajon, Eh, oh, voy jonga darmon.

Qanday so'z ekan «rahmat»? Kim topsa unga rahmat!

2-tarqatma



1-topshiriq. O'zbek xalq, udum biri, qiz uzatish marosim, an'ana aylanmoq, fotiha olmoq, ota-ona tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Berilgan tayanch so'zlarni undalma vazifasida qatnashtirib, «Bahor» mavzusiga bog'liq dialog tuzing. Bahor, lola, yoqimli shabada, qalb.

3-tarqatma



1-topshiriq. O'zbek udum, qadim-qadimdan, hayit bayramlar, yangi kelin qo'li choy ichmoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Dialogik matnni monologik matnga aylantiring.

—Xoshim! – deb chaqiradi ba'zan oyim.

—Labbay, oyijon?

—Tomdan o'tin tashlab bergin.

—Xo'p bo'ladi, oyijon, deyman... (X.To'xtaboyev)

4-tarqatma



1-topshiriq. Turkiy xalq, udum bo'lmoq, sunnat to'y, qilmoq, xalq osh qilib bermoq tayanch so'z va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. «Ot-rang» qolipli beshta qo'shma sifat hosil qiling va gaplar yozing.

Namuna: havorang, feruzarang...

5-tarqatma



1-topshiriq. Milliy qadriyat, hashar qilmoq, tevarak-atrof ozoda saqlamoq xalq qon-qoniga singmoq tayanch soʻz va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Matn turi va uslubini aniqlang.

—Umr nima, ey odam,

—Umr uchib ketgan qush.

—Armon nima ey odam?

—Armon esdan chiqqan tush. (M.Yusuf)

6-tarqatma



1-topshiriq. Qadim-qadim, toʻylar, lapar, xalq qoʻshiqlar kuylash, aylangan anʼana tayanch soʻz va birikmalar asosida gaplar yozing.

2-topshiriq. Berilgan misolning uslubini aniqlang.

— Hoy, oʻrgilay, Bashoratxonning uyi shumi? Eri peravodniy... (Oʻ.Hoshimov)

